
RASMIY MUNOSABAT



Ijtimoiy tarmoqlar orqali Qo'shtepa tumanidagi Soybo'yi mahallasidan yuborilgan tanqidiy murojaat yuzasidan quyidagilarni ma'lum qilamiz:

Jahon bankining "Qishloq infratuzilmasini rivojlantirish loyihasi"ga asosan Qo'shtepa tumanining bir qator mahallalari hududlarida aholining talablaridan kelib chiqib elektr ta'minotini yaxshilash bo'yicha dasturlar amalga oshirilmoqda. Shu jumladan Soybo'yi MFY hududida ham yangi transformator punktlari o'rnatish, mavjud transformatorlarni rekonstruktsiya qilish, yangi elektr uzatish tarmoqlari qurish va eskilarini rekonstruktsiya qilish uchun elektr ta'minoti korxonasi tomonidan belilangan tavsiyalar asosida loyihalar tayyorlangan.

Hozirda Jahon banki tomonidan qurilish uchun tender tanlovlari o'tkazilib, g'olib deb topilgan quruvchi korxonalar bilan shartnoma imzolash jarayoni olib borilmoqda. Tez kunlarda Soybo'yi mahallasi hududida qurilish montaj ishlari boshlanishi rejalashtirilib, mahalla hududidagi TP-42 va undan chiquvchi 0.4 kV uzatmani to'liq rekonstruktsiya qilinishi loyihalashtirilgan.

Qo'shtepa tumani hokimligi Axborot xizmati.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook,](#)

2024-01-29 09:27:53